MAKTABDA INSPEKTOR-PSIXOLOGLAR FAOLIYATINING TARBIYAVIY JARAYONDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Aripova Dilbar Raxmonberdi qizi
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu malaka ishida maktablarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishda inspektor-psixologlar bilan hamkorlikning ahamiyati, mazmuni va mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda individual yondashuv asosida o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida psixologik-pedagogik diagnostika, profilaktik ishlar, xavf guruhi bolalarini aniqlash, ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, maktab inspektor-psixologlari, sinf rahbarlari, ota-onalar va boshqa pedagogik jamoa a’zolari o‘rtasidagi hamkorlikning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari o‘rganilgan. Ish yakunida ta’lim muassasalarida individual tarbiyaviy yondashuvni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *inspektor-psixolog, individual yondashuv, tarbiyaviy ishlar, maktab, hamkorlik, pedagogik diagnostika, psixologik qo‘llab-quvvatlash, profilaktika, xavf guruhi o‘quvchilari, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.*

АННОТАЦИЯ

В данной квалификационной работе освещается значение, содержание и механизмы сотрудничества с инспекторами-психологами в эффективной

организации воспитательной работы в школах. В исследовании на основе индивидуального подхода проанализированы практические методы психолого-педагогической диагностики, профилактической работы, выявления учащихся группы риска, а также поддержки их социально-эмоционального развития в процессе работы с учащимися.

Кроме того, изучены организационные и педагогические условия взаимодействия между школьными инспекторами-психологами, классными руководителями, родителями и другими членами педагогического коллектива. В заключении работы разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию индивидуального воспитательного подхода в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *инспектор-психолог, индивидуальный подход, воспитательная работа, школа, сотрудничество, педагогическая диагностика, психологическая поддержка, профилактика, учащиеся группы риска, социально-эмоциональное развитие.*

ANNOTATION

This qualification work explores the importance and mechanisms of cooperation with school inspector-psychologists in organizing educational activities based on an individual approach. The study analyzes practical methods of psychological and pedagogical diagnostics, preventive measures, identification of at-risk students, and supporting their socio-emotional development within the school environment. It also examines the organizational and pedagogical conditions for effective collaboration among school inspector-psychologists, class teachers, parents, and other members of the educational community. The work concludes with recommendations aimed at improving individually oriented educational practices in

general secondary schools.

Keywords: *school inspector-psychologist, individual approach, educational activities, cooperation, pedagogical diagnostics, psychological support, prevention, at-risk students, socio-emotional development.*

“Zamonaviy maktab nafaqat o'qituvchi, balki psixolog, tarbiyachi va inspektorlarning hamkorligida ishlashi kerak. Har bir o'quvchi uchun alohida yondashuv - muvaffaqiyat kalitidir."

Sh.M. Mirziyoyev

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy muhitga moslashuvini rag‘batlantirish tarbiyaviy jarayonning eng muhim jihatlaridan biridir. Maktab — bu nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki o‘quvchilarning emotsional, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini shakllantiruvchi asosiy makon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish muhim vazifa sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Mazkur qaror umumta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini monitoring qilish, muammoli vaziyatlarning barvaqt oldini olish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirishni nazarda tutadi.

Qarorga muvofiq:

-maktab psixologlarining faoliyati aniq yo‘nalishlar asosida tashkil etiladi;

-o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha diagnostik ishlar olib boriladi;

-ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish choralari ko‘riladi;

-ota-onalar va pedagoglar uchun psixologik maslahat va seminar-treninglar tashkil etiladi;

-huquqbuzarlik va salbiy xatti-harakatlarning profilaktikasi kuchaytiriladi.

Shuningdek, qaror ta’lim muassasalarida “maktab–oila–mahalla” hamkorligini rivojlantirish, xavf guruhiga kiruvchi o‘quvchilar bilan manzilli ishlash, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarni ham qamrab oladi.

Maktab inspektor-psixologlari bu jarayonda markaziy rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilar bilan individual ishlash, psixologik diagnostika olib borish, xavf guruhi o‘quvchilarini aniqlash, pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi funksiyalarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, ular tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash va maktabdagi ijobiy psixologik muhitni yaratishga hissa qo‘shadi.

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida individual yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalasi jahon pedagogik tajribasida ham dolzarb mavzu hisoblanadi. Yaponiya, Finlandiya va AQSh kabi mamlakatlar bu sohada ilg‘or metodlarni ishlab chiqqan bo‘lib, ular maktab psixologlari va pedagoglar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni tizimli ravishda joriy etgan. Shu tajribalarni o‘rganish va O‘zbekiston maktablari sharoitiga moslashtirish milliy ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va maktablarda tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirish masalasi so‘nggi yillarda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, xavf guruhi

o‘quvchilari bilan ishlash, shaxsiy rivojlanish potentsialini aniqlash va unga mos tarbiyaviy ta’sirni tashkil etish dolzarb muammolardir.

Shuningdek, global tajribalar ko‘rsatadiki, maktab psixologlari va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik tizimli va samarali bo‘lganda, individual yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish o‘quvchilarning o‘zini anglash, stressni boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va shaxsiy mas’uliyatni oshirish imkonini beradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston maktablarida ham individual yondashuvni joriy etish va xavf guruhi o‘quvchilari bilan ishlash samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarligi shundaki, maktab psixologlari va inspektorlar bilan samarali hamkorlik o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, tarbiyaviy ishlarning tizimli va individual asosda olib borilishini ta’minlash, shuningdek, maktabdagi ijtimoiy muhitni xavfsiz va sog‘lom qilish imkonini beradi.

Maqsadi-maktab inspektor-psixologlari bilan hamkorlikda individual yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish hamda O‘zbekiston maktablarida ushbu tajribalarni tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston maktablarida inspektor-psixologlar faoliyati va individual yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda o‘rganishga yo‘naltirilgan birinchi izlanishlardan biri hisoblanadi. An’anaviy tadqiqotlar ko‘proq pedagogik jarayon va umumiy tarbiyaviy ishlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, mazkur ish individual yondashuv, xavf guruhi o‘quvchilari bilan ishlash va maktab jamoasi hamkorligini integratsiyalashgan tizim asosida tahlil qiladi.

Ilmiy yangiligi quyidagi jihatlar bilan namoyon bo‘ladi:

1. Xorijiy tajribalarni solishtirish: Yaponiya, Finlandiya va AQSHning ilg‘or maktab psixologiyasi va individual yondashuv metodlari O‘zbekiston sharoitiga

moslashtiriladi, bu esa milliy ta’lim tizimida yangi ilmiy-ammaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

2. Individual yondashuvning ilmiy asoslarini kengaytirish: Ishda o‘quvchilarning psixologik, ijtimoiy va emotsional xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy va metodik jihatlari batafsil tahlil qilinadi. Bu esa pedagogika va maktab psixologiyasi sohasida mavjud ilmiy tadqiqotlarni yangilashga xizmat qiladi.

3. Hamkorlik mexanizmlarini aniqlash: Inspektor-psixologlar, sinf rahbarlari va ota-onalar o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik tizimi O‘zbekistondagi amaliyot asosida ilmiy tahlil qilinadi, bu esa pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ilgari ochilmagan yo‘nalishni taqdim etadi.

4. Profilaktik va korrigirlash yondashuvlarini takomillashtirish: Xavf guruhi o‘quvchilari bilan ishlash metodlari va profilaktik dasturlarni amaliy va nazariy jihatdan yangilash orqali maktab tarbiyasining samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, mazkur ish O‘zbekiston maktablarida psixologik xizmatning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi, bu esa pedagogika va psixologiya fanlari rivojiga hissa qo‘shadi.

Ta’lim tizimida inspektor-psixologlar faoliyati o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy-psixologik himoyasini ta’minlash va maktabda sog‘lom tarbiyaviy muhit shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Maktab jamoasi — o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ma’muriyat hamda ota-onalar o‘zaro murakkab ijtimoiy munosabatlar orqali faoliyat yuritadi. Ushbu tizimdagi har bir subyektning barqaror, uyg‘un va sog‘lom psixologik holatini ta’minlashda inspektor-psixologning o‘rni beqiyosdir.

Avvalo, inspektor-psixologlarning asosiy vazifasi o‘quvchilar psixik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar, qisqa va uzoq muddatli emotsional jarayonlar,

moslashuvdagi qiyinchiliklar, xulq-atvor buzilishlari va shaxslararo ziddiyatlarni aniqlashdan iborat. Psixolog zamonaviy diagnostik metodlar — kuzatuv, suhbat, eksperimental topshiriqlar, psixometrik testlar, sotsiometrik tahlillar orqali har bir o‘quvchining psixologik portretini shakllantiradi. Bu ma’lumotlar sinf rahbarlari, ma’muriyat va ota-onalar uchun tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiyaviy jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan maktabdagi ijtimoiy-psixologik iqlimga bog‘liq. Ziddiyatlar, agressiya, o‘zaro hurmatning pasayishi, mobbing kabi salbiy holatlar o‘quvchi rivojlanishini izdan chiqarishi mumkin. Inspektor-psixologlar ushbu xavflarni erta aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha profilaktik dasturlar ishlab chiqadi: antiziddiyat treninglari, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish mashg‘ulotlari, emotsional barqarorlik bo‘yicha psixologik seminarlar va individual suhbatlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, inspektor-psixologlar tarbiyaviy jarayonning normativ-huquqiy jihatlarini ham bilishi va maktabdagi ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashda faol ishtirok etishi zarur. Ular voyaga yetmaganlar masalalari, huquqbuzarliklarning oldini olish, xavf guruhi bolalar bilan ishlash bo‘yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Shu sababli, inspektor-psixolog maktabdagi tarbiyaviy tizimning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning ilmiy asoslangan faoliyati o‘quvchi shaxsining uyg‘un rivojlanishiga, maktab jamoasining barqaror psixologik muhitini shakllantirishga va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy-emotsional barqarorlik va xavf guruhi o‘quvchilarining tarbiyaviy qo‘llab-quvvatlanishi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, maktab inspektor-psixologlar faoliyati tarbiyaviy jarayonda markaziy rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: O‘qituvchi, 2020. - 256 b.

3. Boymetov B.R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: Fan, 2019. - 184 b.

4. G‘afforova T. Maktabda psixologik xizmat. - T.: O‘zbekiston, 2018. - 320

5. Abdullayeva Sh.S. "Maktabda inspektor-psixolog hamkorligini takomillashtirish" // Xalq ta'limi jurnali, 2022, №3, 45-49-b.

6. Ahmedov M.K. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy modellari. - T.: Sharq, 2020. - 167 b.

7.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy veb-sayti - www.uzedu.uz

8. O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti - www.pedinst.uz

9. "Ma'rifat" elektron ta'lim portali - www.marifat.uz

10. "Sog'lom avlod" psixologik xizmat portali - www.soglomavlod.uz